



# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 1 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	<i>SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI MODERNIZATSIYA QILISH VA UNING QAMROVINI OSHIRISH YO'LLARI</i> <i>Adilova Gulnur Djurabayevna</i>	4
2.	<i>AGROSANOAT MAJMUIDA SUG'URTALANGAN OB'EKTAR HOLATINI MONITORING QILISHDA RAQAMLI GAT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI</i> <i>Yadgarov Akram Akbarovich</i>	7
3.	<i>MAMLAKAT ICHKI INVESTITSION IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHDA SUG'URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI</i> <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	11
4.	<i>SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY HOLATINI BAHOLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH</i> <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	15
5.	<i>SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI BOSHQARISH TIZIMI</i> <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	20
6.	<i>MAMLAKATIMIZDA OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH</i> <i>Abdusattarova Dildora Bohodirovna</i>	25
7.	<i>O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY SOHA XARAJATLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI</i> <i>Rashidova Guzal Abduvohidovna, Xamroyev Mexroj Sirojxonovich</i>	29
8.	<i>KORXONALAR MOLIYAVIY NATIJALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLASHTIRISH TIZIMINING ROLI</i> <i>Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o'g'li, Faxriddinov Bekzodbek Faxriddin o'g'li</i>	32
9.	<i>TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BAHOLASHDA RISKLAR VA DIVERSIFIKATSIYANING O'RNI</i> <i>Toshtemirov Doston O'ktam o'g'li</i>	36
10.	<i>ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS: CONCEPTUAL FOUNDATIONS AND THREAT MITIGATION FRAMEWORK</i> <i>Agzamov Avazon Talgatovich, Malikova Dilrabo Muminovna</i>	40
11.	<i>ШАФФОФ ИНВЕСТИЦИОН МУХИТНИ ЯРАТИШГА ҚАРАТИЛГАН ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ</i> <i>Имомов Хамдилла Хамдамович</i>	44
12.	<i>TURIZM KORXONALARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH MASALALARI</i> <i>Axrorov Zarif Oripovich</i>	47
13.	<i>ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКУ</i> <i>Эргашева Юлдуз</i>	50
14.	<i>O'ZBEKISTONDA TRANSPORT LOGISTIKASI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI</i> <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Fozilova Shaxloxon</i>	52
15.	<i>YURIDIK SHAXSLAR MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI</i> <i>Agzamov Avazxon Talgatovich</i>	55
16.	<i>JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH TARTIBI VA UNING NAZARIY ASOSLARI</i> <i>Bobomurotova Manzura Panji qizi</i>	58
17.	<i>O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO STANDARTLARNING O'RNI VA AHAMIYATI</i> <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	62

## “O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



## YURIDIK SHAXSLAR MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Agzamov Avaxxon Talgatovich

Tashkent davlat iqtisodiyot universiteti "Soliq va soliqa tortish" kafedrasini professori, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori  
a.agzamov@tsue.uz

**Annotatsiya:** Maqola yuridik shaxslar mol-mulkini soliqa tortish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda bugungi kunda mol-mulkni soliqa tortishning ahamiyati va zarurligi, o'ziga xos xususiyatlari, yuridik shaxslar mol-mulkini soliqa tortish bo'yicha muammolar tahlili va hal etish yo'llari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** yuridik shaxs, mol-mulk, soliq, ko'chmas mulk.

**Abstract:** The article is devoted to the issues of taxation of property of legal entities, in which the importance and necessity of taxation of property today, its characteristics, analysis and solution of problems related to taxation of property of legal entities are discussed. are listed.

**Keywords:** legal entity, property, tax, real estate.

**Абстрактный:** Статья посвящена вопросам налогообложения имущества юридических лиц, в которой обсуждаются важность и необходимость налогообложения имущества на сегодняшний день, его характеристики, анализ и решение проблем, связанных с налогообложением имущества юридических лиц.

**Ключевые слова:** юридическое лицо, имущество, налог, недвижимость.

### Kirish (Введение/Introduction).

Globalashuv jarayonlarining jadallashuvi hamda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tarkibiy va institutsional o'zgarishlar milliy soliq siyosatini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xususan, iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy sektor ulushining ortishi, tadbirkorlik faoliyatining kengayishi va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan islohotlar soliq tizimining samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Shu nuqta nazardan, soliq siyosati nafaqat fiskal vazifani bajarishi, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi, investitsiyalarni jalb etuvchi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Soliq kodeksida yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini soliqa tortishning asosiy tamoyillari huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan bo'lsa-da, amaliyotda tadbirkorlik subyektlari, tovar ishlab chiqaruvchilar hamda aholining iqtisodiy manfaatlarini to'liq qamrab oluvchi, barqaror va muvozanatli soliqa tortish tizimi hali to'liq shakllanmaganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq solish tizimi bo'yicha mavjud muammolar, ushbu soliq turining iqtisodiy rag'batlantiruvchi imkoniyatlari yetarli darajada ishga solinmayotganini ko'rsatadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq solishda asosiy masala soliq obyektini sifatida mulkning iqtisodiy mohiyatini to'g'ri aniqlash bilan bog'liq. Amaliy jihatdan mol-mulk daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan turlarga ajratilishi mumkin. Daromad keltiruvchi mulklar tarkibiga ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi asosiy fondlar, ishlab chiqarish binolari, uskunalar hamda aylanma mablag'lar kiradi. Ushbu mulklar korxonalar faoliyati natijasida foyda shakllanishiga xizmat qilgani sababli ularni soliqa tortish mexanizmi iqtisodiy samaradorlikni rag'batlantiruvchi yo'sinda tashkil etilishi lozim.

Daromad keltirmaydigan mol-mulk esa, ishlab chiqarish jarayonida bilvosita ishtirok etuvchi ijtimoiy obyektlar, xodimlar uchun mo'ljallangan infratuzilma, madaniy-maishiy inshootlar va boshqa yordamchi obyektlarni o'z ichiga oladi. Bunday mulk turlari to'g'ridan-to'g'ri foyda keltirmasa-da, korxonalar faoliyatining uzluksizligi, mehnat resurslaridan samarali foydalanish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ularni soliqa tortishda

tabaqalashtirilgan yondashuvni qo'llash, soliq yukini maqbullashtirish hamda rag'batlantiruvchi imtiyozlar berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur jarayonda yuridik shaxslar soliqa tortish subyekti sifatida maydonga chiqib, ularning mol-mulkidan samarali foydalanish darajasi, investitsion faolligi va iqtisodiy barqarorligi soliq siyosati orqali bevosita tartibga solinadi. Shu bois, mol-mulk solig'ini takomillashtirishda soliq stavkalarini iqtisodiy faoliyat turiga moslashtirish, ishlab chiqarish va investitsiyalarni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish, shuningdek, soliq ma'murchiligini soddalashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

### Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Literature review, Анализ литературы)

A.Vartašová va K.Červenálar mol-mulk solig'i iqtisodiy o'sishni eng kam cheklaydigan soliqlar qatoriga kiradi, degan fikrga qo'shiladi [1]. Mol-mulk solig'i ko'pincha mahalliy soliq sifatida qo'llaniladigan an'anaviy to'g'ridan-to'g'ri mulk solig'iga tegishli bo'lishining sababi shu bo'lishi mumkin; shuning uchun u tez-tez tahlil qilinadigan mavzulardan biridir.

SH.I. Musalimov jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i mahalliy budjetlar daromadlarining muhim manbai va resurs soliqlarining bir turi deya ta'kidlaydi [2].

Iqtisodchi olimlardan A.X. Islamkulov mol-mulk solig'i birinchi navbatda cheklangan resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlovchi, ikkinchi tomondan korxonalar faoliyatini tartibga solishga xizmat qiluvchi moliyaviy dastak hisoblanadi, deb e'tirof etgan [3].

J.Zaynalov, S.Aliyeva va Z.Axrorovlar o'z ilmiy izlanishlari davomida soliq tizimida mol-mulk solig'ini joriy qilishdan ko'zlangan maqsad birinchi, korxonalar o'zlarining xo'jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg'otish bo'lsa, ikkinchidan, korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag'batlantirishdan iboratligini e'tirof etishadi [4].

Iqtisodchi olim I.Niyazmetov fikricha, mol-mulk solig'ini isloh qilishda ko'chmas mulk obyektlari kadastr qiymatini ularning real bozor qiymati bilan muvofiqlashtirish lozim [5]. Ushbu soliqlarning real bozor

qiyamatiga nisbatan hisoblanishi ko'zlangan maqsadlarga to'la erishish imkoniyatini yaratadi.

S.Xudoyqulov va U.Tulakovlar ko'chmas mulkni soliqqa tortishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati haqida fikr yuritib, daromadning har xil darajasi bilan, ko'chmas mulk solig'ini bevosita to'lash soliq to'lovchining farovonligi va uning soliq yuki darajasiga ta'sir qilishini ta'kidlaydi [6]. Bunda aholining imtiyozli toifalaridan tashqari ko'chmas mulkni soliqqa tortishda soliq to'lovchilar daromadlari darajasini hisobga olish zarur hisoblanadi.

Iqtisodchi olim G'.Safarov o'z ilmiy tadqiqotlari davomida respublikamizda ko'chmas mulkning bozor qiymatini aniqlash va soliqqa tortish mexanizmini joriy qilish orqali mahalliy budjetlar daromadlarini mustahkamlash, mol-mulk va yer uchastkalaridan samarali va oqilona foydalanishning iqtisodiy mexanizmini kuchaytirish muhim deya hisoblaydi [7].

Mol-mulk stavkasi rivojlanayotgan mamlakatlarda munitsipal boshqaruvni moliyalashtirishning potentsial jozibador vositasidir. Daromad manbai sifatida u mahalliy hokimiyat organlariga keng va kengayib borayotgan soliq bazasidan foydalanish imkoniyatini berishi mumkin [8].

Mol-mulk solig'ining amal qilish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, uni amalga oshirish uchun chora-tadbirlar belgilangan bo'lsada, respublikamiz soliq tizimida amalda bo'lgan mol-mulk solig'i obyekt va bazasini o'ziga xosligi bu jarayonda ayrim murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda.

#### **Tadqiqot maqsadi va usullari (Research objective and methods, Цель и методы исследования)**

Tadqiqot metodologiyasi sifatida butun iqtisodiy hamjamiyat doirasida hamda respublikamiz soliq tizimida mol-mulk solig'i bo'yicha olib borilayotgan soliq islohotlari, Prezident qaror va farmonlarini chuqur o'rganish davomida analiz, sintez va iqtisodiy matematik usullar, ilmiy mushohada, ma'lumotlarni guruhlash hamda prognozlash orqali nazariy tahlil usullaridan keng foydalanildi.

#### **Tahlil va natijalar (Analysis and results, Анализ и результаты)**

Mol-mulk soliqlari qadim zamonlardan ma'lum va u uzoq vaqt davomida soliq solishning asosiy shakli bo'lib kelgan. Biroq, ushbu soliqni kiritishdan maqsad faqatgina, mahalliy budjetni to'ldirishdan iborat emas. Uning yordamida korxonalar mol-mulkdan foydalanishining samaradorligiga ta'sir o'tkazish, ortiqcha, ishlatilmayotgan asosiy vositalarni realizatsiya qilishga qiziq uyg'otish, yangi uskunani ishga tushirish muddatlarini qisqartirish mumkin va hokazo.

Mulk soliqlaridan keladigan daromad yetakchi salmoqqa ega bo'lmasa-da, bu soliqlar soliq tizimida o'ziga xos o'rin tutadi. Shuningdek, mulk solig'i davlat budjetiga daromadni ta'minlash bilan birga, daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi. Mulk soliqlarining asl maqsadi davlat budjeti manfaatlariga va korxonalar manfaatlariga xizmat qilishdan iborat.

Korxonalar mol-mulkini soliqqa tortish mexanizmi, bu - yuridik shaxslar mol-mulkiga soliq solish bilan bog'liq bo'lgan, soliqni tashkil qilishda byovosita ishtirok etuvchi elementlar majmui hisoblanadi. Bu majmua: soliq subyekti; obyekt; soliqqa tortish birligi; soliq stavkasi; soliqqa tortiladigan baza; soliq imtiyozlari; soliqni to'lash muddatlari va boshqa elementlardan iborat.

Mol-mulk solig'ining umumiy jihat va tomonlarini quyidagi tarzda ko'rsatilishi muhimdir:

1. Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar soliqqa tortish maqsadida korxonalar mol-mulki, buxgalteriya hisobi balansi aktiv qismi bo'yicha asosiy fondlarning boshlang'ich qiymati xisoblanadi.

2. Mazkur soliq bir tomondan, soliq to'lovchilar tomonidan mol-mulk solig'ini to'lashdan bo'yin tovlashlarning oldini olsa, ikkinchi tomondan, maxalliy budjet daromadlarini shakllantirishning zaruriy manbai xisoblanadi. Maqsad muayyan darajada asosiy fondlarning to'xtovsiz ishlashini ta'minlash va ularni rag'batlantirishdan iborat.

3. Mol-mulk solig'ini amal qilishi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkiy xolatini takomillashtirishni va mulkchilikning ko'pgina murakkab xuquqiy masalalarining xal qilinishini talab etadi.

4. Ushbu soliqni to'lash, ishlab chiqarish jarayonida va soliq to'lovchi uchun ishlab chiqarish faoliyatida og'irlik tug'dirmasligi lozim.

5. Mazkur soliq respublikamizning maxalliy budjet daromadlarini shakllantiruvchi asosiy soliq turi bo'lib hisoblanadi.

Korxonalarim ma'naviy va jismoniy tomondan eskirgan asosiy vositalarini yangi, ilg'or texnologiya-uskunalar bilan yangilashi ishlab chiqarilayotgan tovarlarning bahosini arzonlashtiradi va raqobatbardosh

tovarlar ishlab chiqarishga imkon beradi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning balansidagi barcha mulklardan soliq to'lashga majbur qilish uni ortiqcha bino, inshootlar, mashina va uskunalardan qutilishiga undaydi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirishga, mahsulot tannarxini pasaytirishga hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, mol-mulk solig'i daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi.

Mamlakatimizda so'nggi paytlarda mol-mulk solig'i bazasini indeksatsiyasi bo'yicha jamoatchilik muhokamasida chalkashliklar va adolatsizlik haqidagi da'volar hukmronlik qilmoqda. Indekslov avtomatik ravishda soliqning 20-33% ga oshishiga olib keladi degan da'vo noto'g'ri. Minimal soliqqa tortiladigan qiymat oshganiga qaramay, soliq stavkasi o'zgarishsiz 1,5% ni tashkil qiladi. Qolaversa, ushbu indekslov minimal qiymatdan kam balans qiymatga ega bo'lgan ko'chmas mulklargagina ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun butun kompaniya uchun mol-mulk solig'i 20-33% oshadi degan fikr berilishi to'g'ri emas.

Korxonalar mol-mulkini soliqqa tortishni takomillashtirish bir necha yo'nalishda amalga oshirilishi kerak.

Korxonalardan undiriladigan mol-mulk solig'i mexanizmidagi soliq solish bazasi, soliq stavkasi va imtiyozlari berish muxim xisoblanadi. Har yili mazkur soliq stavkasining oshirilishi va uning sabablari asoslanishi lozim. Hozirgi vaqtda amaldagi korxonalar mol-mulk solig'i stavkasi va soliqqa tortish bazasini aniqlash tartibi xalqaro umumbelgilangan yondashuv bilan solishtirganimizla bir-biridan sezilarli farqqa ega.

Fikrimizcha, korxonalar mol-mulkini soliqqa tortish mexanizmidagi soliqqa tortish obyektini o'zgartirish maqsadga muvofiqdir.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq soliqqa tortish maqsadi asosiy fondlarning o'rta yillik balans qiymatini aniqlashda asosiy fondlarning boshlang'ich qiymati asos qilib olingan. Ammo soliqqa tortish maqsadi asosiy fondlarning boshlang'ich qiymatini bekor qilib uning o'rniga asosiy fondlarning qoldiq qiymatidan foydalanish lozim. Chunki ekspluatatsiya jarayonida asosiy vositalar o'zining boshlang'ich sifatini yo'qotib, jismoniy va ma'naviy tomondan eskiradi. Qoldiq kiyimat mulkning ma'naviy va jismoniy eskirishi natijasida paydo bo'lgan real qiymatni obyektiv baholashga imkon beradi, mulk egasiga soliq og'irlikini pasaytirishga xizmat qiladi.

Ko'pgina mamlakatlar mol-mulk solig'i bo'yicha bozorga asoslangan soliq bazalarini qabul qilgan. Bu soliqning to'g'riligi va adolatligini ta'minlaydi. O'zbekistonning bu boradagi qadami ilg'or xalqaro tajribaga mos keladi. Kelgusida buxgalteriya ma'lumotidagi balans qiymati bekor qilinishi navbatdagi mantiqiy qadam bo'ladi.

Iqtisodiy rivojlanish strategiyalarida soliq imtiyozlari keng tarqalgan vosita hisoblanadi. Ular sarmoya jalb etish, ish o'rinlari yaratish va muayyan sohalarida o'sishni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu imtiyozlarni ularning mo'ljallangan maqsadlarini hisobga olmasdan bekor qilish samarasiz bo'lishi mumkin.

Korxonalar mol-mulkini soliqqa tortishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan yana biri bu soliqdan beriladigan imtiyozlar tizimi va ularni takomillashtirish bilan bog'liq.

Ma'lumki soliq imtiyozlari soliq to'lovchilarga qonun asosida beriladigan yengilliklar, soliqlar miqdorini kamaytirish, soliq to'lash shartini yengillashtirish yoki aloxi shaxslar yoki to'lovchilar turkumi soliq to'lashdan to'liq yoki qisman ozod qilish, soliq stavkasini pasaytirish, soliq obyektining soliqqa tortiladigan minimumi, ayrim soliq obyekt elementlarini soliqqa tortishdan chiqarib tashlash, soliq undirib olishni kechiktirish kabi maqsadli va shunga o'xshash soliq imtiyozlari mavjud. Soliq imtiyozlarini rag'batlantirishi va maqsadga muvofiq qo'llanilishiga qarab quyidagilarga bo'lish mumkin: ma'lum korxonalar va tashkilotlarni soliq to'lashdan to'liq ozod qilish; yangi tuzilgan korxonalar uchun soliq to'lash bo'yicha imtiyozlar berish; soliq to'lashdan vaqtincha ozod qilish; soliq solinadigan bazani kamaytirish; soliqdan qisman ozod qilish; xorijiy xamkorlarga imtiyoz berish; tovar eksportiga imtiyozlar berish va boshqalardan iborat bo'lishi zarur.

Korxonalar mol-mulk solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlar tizimi amaldagi statistik jamlama ma'lumotlarga asosan tahlil qilingan, mazkur imtiyozni jami respublika bo'yicha berilgan imtiyozlar ichidagi salmog'ini oshirish lozim.

Fikrimizcha, respublikamizda ham asosiy vositalarni mol-mulk solig'iga tortishda bevosita ishlab chiqarishda band, ijtimoiy va ma'muriy asosiy vositalarga guruhlangan holda soliqqa tortish tartibini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda bevosita ishlab chiqarishda band bo'lgan asosiy vositalarni ma'muriy asosiy vositalarga nisbatan pastroq stavkada soliqqa tortilishi hamda ijtimoiy ahamiyatga ega asosiy vositalarga mol-mulk

solig'idan imtiyozlar berish amaliyotini joriy etilishi ishlab chikarishni va unda band bo'lib turgan asosiy vositalarni kengayishini rag'batlantirish bilan birga, investitsiyalarni bevosita ishlab chikarishda band bo'ladigan asosiy vositalarga yo'naltirishga xizmat qiladi hamda korxonalar tomonidan haddan tashkari dabdabali ma'muriy binolar qurilishini birmuncha cheklaydi.

Mol-mulk solig'i davlat budgetiga daromadni ta'minlash bilan birga, daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi.

#### **Xulosa (Заключение/Conclusion.)**

Tadqiqot natijalariga ko'ra, jismoniy shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosalar va takliflar shakllantirildi:

1. Jismoniy shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliq muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, u orqali jamiyatda mavjud boyliklar soliqqa tortish mexanizmi asosida tartibga solinadi hamda moliyaviy resurslarning bir qismi davlat budgetiga qayta taqsimlanadi. Davlat mol-mulk hajmining oshishidan manfaatdor bo'lsa, jismoniy shaxslar o'z mulklarining daxlsizligini saqlashdan manfaatdor bo'ladi va buning evaziga belgilangan tartibda soliq to'laydi. Ushbu manfaatlar muvozanatini ta'minlash soliq siyosatining asosiy vazifalaridan biridir.

2. Amaldagi tartibga ko'ra, mol-mulk ko'chmas va ko'char turlarga ajratilib soliqqa tortiladi. Biroq soliq obyektining asosan ko'chmas mulkka yo'naltirilganligi ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bois, mol-mulkni soliqqa tortishda tijorat faoliyatida foydalaniladigan va foydalanilmaydigan obyektlarni alohida guruhlash hamda ularga nisbatan tabaqalashtirilgan stavkalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

3. Jismoniy shaxslarning noturajoy obyektlaridan tadbirkorlik maqsadida foydalanish ko'laminin kengayishi mol-mulk solig'i tushumlarining oshishiga xizmat qilmoqda. Turar joy obyektlariga maydon va foydalanish maqsadiga qarab tabaqalashtirilgan soliq stavkalarining joriy etilishi mulkdan samarali foydalanishni rag'batlantiruvchi ijobiy omil sifatida baholanishi mumkin.

4. Mol-mulk solig'i bazasini indeksatsiya qilish soliq tizimining adolatligini ta'minlash va bozor qiymatlariga yaqinlashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayon bilan bog'liq ijtimoiy xavotirlarni kamaytirish uchun soliq imtiyozlari va tushuntirish ishlarini kuchaytirish zarur. Shu jihatdan soliq siyosati bo'yicha ochiq va asosli axborot berish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):**

1. Vartašová A., Červená K. Real Property Tax in the Countries of Visegrad Group—Comparative View. //Studia Iuridica lublinensia 31, no. 1. 2022. – p. 191-211.
2. Musalimov Sh.I. Mol-mulk solig'ini hisoblash va undirish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. T: TMI, 2020.-59 b.
3. Исламкулов А. Бюджет даромадларида бевосита соликлар тушуми барқарорлигини таъминлаш йўллари: Иқтисод фанлари номзоди илмий даражаси учун ёзилган диссертация автореферати. Т., 2012. 15 б.
4. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik / A. Taniyev, S. Aliqulov, Z. Axrorov, Sh. Tuychiyev. - T: 2024. – 268 b.
5. Ниязметов И.М. Ўзбекистонда кўчмас мулкни соликка тортиш механизмини такомиллаштириш. //Бозор, пул ва кредит. 2020 йил 11-сон. – 40 б.
6. Xudoyqulov S.K., To'lakov U.T. O'zbekistonda ko'chmas mulkni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish. //Moliya va bank ishi. 2020 yil VI-son. – 165 b.
7. Safarov G.A. Ko'chmas mulk solig'ini joriy etish istiqbollari. //Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tutgan o'rni 2023. 1(1).
8. Adalety J. E., Alkadash T. M., Achiyaale R. A., & Oware K. M. Property tax and tax system for revenue mobilization. Specialusis Ugdyamas 1, no. 43. 2022. – p. 429-449.